

GLOBALLASHUV VA RAQAMLI JAMIYAT SHAROITIDA MILLIY HAMDA DINIY QADRIYATLAR TRANSFORMATSIYASI

Yusupova D.D.

Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universiteti
professori v.b. falsafa fanlari doktori (DSc).

E-mail: yu.dildorahon@gmail.com

Do'stmurodov B.B.

Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universiteti talabasi

E-mail: bexnurdustmurodov@gmail.com

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.20562648>

***Annotatsiya:** Mazkur maqolada globallashuv va raqamli jamiyat sharoitida milliy hamda diniy qadriyatlar transformatsiyasining asosiy yo'nalishlari tahlil qilinadi. Internet, ijtimoiy tarmoqlar va raqamli texnologiyalarning keng tarqalishi milliy madaniyat, an'ana va diniy qadriyatlarga ta'sir ko'rsatayotganligi hamda ularning yangi sharoitga moslashish jarayoni o'rganiladi.*

***Kalit so'zlar:** globallashuv, raqamli jamiyat, milliy qadriyatlar, diniy qadriyatlar, transformatsiya, madaniy meros, identiklik.*

ТРАНСФОРМАЦИЯ НАЦИОНАЛЬНЫХ И РЕЛИГИОЗНЫХ ЦЕННОСТЕЙ В УСЛОВИЯХ ГЛОБАЛИЗАЦИИ И ЦИФРОВОГО ОБЩЕСТВА

***Аннотация:** В данной статье анализируются основные направления трансформации национальных и религиозных ценностей в условиях глобализации и цифрового общества. Исследуется влияние интернета, социальных сетей и цифровых технологий на национальную культуру, традиции и религиозные ценности, а также процесс их адаптации к новым условиям.*

***Ключевые слова:** глобализация, цифровое общество, национальные ценности, религиозные ценности, трансформация, культурное наследие, идентичность.*

TRANSFORMATION OF NATIONAL AND RELIGIOUS VALUES IN THE CONTEXT OF GLOBALIZATION AND DIGITAL SOCIETY

Abstract: *This article analyzes the main directions of transformation of national and religious values in the context of globalization and digital society. The influence of the internet, social networks and digital technologies on national culture, traditions and religious values, as well as the process of their adaptation to new conditions, are examined.*

Keywords: *globalization, digital society, national values, religious values, transformation, cultural heritage, identity.*

O'zbek xalqi diniy va milliy qadriyatlari asrlar davomida uzoq tarixiy taraqqiyot bosqichlarini bosib o'tgan. Bu jarayonda xalqimizning milliy qadriyatlari sayqallanib, ijtimoiy va madaniy jihatdan boyib bordi hamda zamonaviy davrda yangi mazmun va shakl kasb etmoqda. Milliy urf-odatlar, an'analar va udumlar xalqning mental xususiyatlarini o'zida mujassam etgan holda, bugungi kunda ham jamiyat hayotida muhim o'rin tutadi. Ayniqsa, globallashuv va raqamlashuv sharoitida mazkur qadriyatlar zamonaviy ijtimoiy muhit ta'sirida muayyan transformatsiya jarayonlarini boshdan kechirmoqda. Shu bilan birga, o'zbek xalqi milliy qadriyatlarining shakllanishi va rivojlanishida islom dini va madaniyati muhim ahamiyat kasb etgan. Chunki xalqimizning milliy va diniy qadriyatlari o'zaro uyg'unlashgan holda taraqqiy etib kelmoqda. Insoniyat tarixida diniy qadriyatlar inson axloqiy fazilatlarini shakllantiruvchi muhim tarbiyaviy omil sifatida namoyon bo'lgan. Xususan, islom dini xalqimizda mehr-oqibat, bag'rikenglik, insonparvarlik, hamjihatlik va o'zaro hurmat kabi yuksak axloqiy fazilatlarni qaror toptirish va rivojlantirishga xizmat qilib kelmoqda.

Biroq bugungi globallashuv jarayonlari va axborot oqimining keskin kuchayishi milliy hamda diniy qadriyatlarga ta'sir etuvchi yangi omillarni yuzaga keltirmoqda. Ayrim holatlarda ommaviy madaniyat, virtual muhit va yot g'oyalar milliy-ma'naviy qadriyatlarga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin. Shu bois jamiyatda, ayniqsa yoshlar ongida milliy va diniy qadriyatlarga tayangan holda mustaqil

fikrlash, ma'naviy immunitet va tanqidiy tafakkurni shakllantirish muhim ahamiyat kasb etadi. Bu esa Vatan, millat, oila va jamiyat oldidagi mas'uliyatni anglash, yurt tarixi va kelajagiga ongli munosabatni qaror toptirishga xizmat qiladi [1].

Shu nuqtayi nazardan qaraganda, bugungi raqamlashuv jarayonlari milliy va diniy qadriyatlarni saqlash hamda ularni zamon talablariga mos ravishda rivojlantirish masalasini yanada dolzarblashtirmoqda. Zero, zamonaviy axborot makoni inson ongi va dunyoqarashiga kuchli ta'sir o'tkazayotgan sharoitda ma'naviy merosni asrash, uni yosh avlod ongiga singdirish muhim vazifalardan biriga aylanmoqda.

Ayniqsa, XXI asr globallashuv va raqamli texnologiyalar taraqqiyoti bilan xarakterlanuvchi murakkab davr sifatida insoniyat hayotining barcha sohalariga chuqur ta'sir ko'rsatmoqda. Internet, sun'iy intellekt, mobil kommunikatsiyalar va ijtimoiy tarmoqlarning jadal rivojlanishi axborot almashinuvini tezlashtirib, xalqlar o'rtasidagi iqtisodiy, siyosiy va madaniy aloqalarni yangi bosqichga olib chiqdi. Natijada, raqamli makon insonning dunyoqarashi, fikrlashi va ijtimoiy munosabatlariga bevosita ta'sir etuvchi muhim omilga aylandi. Bu esa, milliy va diniy qadriyatlarning mazmuni, ularning namoyon bo'lish shakllari hamda avloddan-avlodga uzatilish mexanizmlarida ham sezilarli o'zgarishlarni yuzaga keltirmoqda. Shu jihatdan qaraganda, milliy va diniy qadriyatlarni saqlash, ularni zamonaviy axborot muhitida yoshlar ongiga singdirish masalasi muhim ahamiyat kasb etmoqda. Shu bilan birga, raqamli makonda turli g'oya va mafkuralarning kuchayishi yoshlarda mustaqil fikrlash va ma'naviy immunitetni shakllantirish zaruratini oshirmoqda.

A. Ergashev ta'kidlaganidek, globallashuv jarayoni milliy-ma'naviy xavfsizlikka bevosita ta'sir ko'rsatib, jamiyat qadriyatlari tizimida yangi o'zgarishlarni yuzaga keltiradi [2]. Bu fikr bugungi raqamli jamiyat sharoitida yanada dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Chunki internet va ijtimoiy tarmoqlar bir tomondan xalqlar o'rtasidagi o'zaro hamkorlik va madaniy aloqalarni kuchaytirsa, ikkinchi tomondan ommaviy madaniyat, standartlashuv hamda nazoratsiz axborot

oqimi ta'sirida ayrim an'anaviy qadriyatlarning zaiflashishiga ham sabab bo'lishi mumkin. Shu nuqtayi nazardan, globallashuvni faqat xavf yoki faqat taraqqiyot omili sifatida baholash biryoqlama yondashuv hisoblanadi. Zero, mazkur jarayon murakkab va ko'p qirrali xususiyatga ega bo'lib, uning jamiyatga ta'siri avvalo ma'naviy muhit, ta'lim tizimi hamda milliy o'zlikni anglash darajasi bilan uzviy bog'liqdir. Shu bois milliy va diniy qadriyatlar jamiyatning tarixiy xotirasi va ma'naviy tayanchi sifatida zamonaviy sharoitga mos ravishda rivojlanib borishi zarur. Aks holda, qadriyatlar va taraqqiyot o'rtasida sun'iy qarama-qarshilik yuzaga kelishi mumkin.

Bugungi asosiy vazifa globallashuvdan chekinish emas, balki zamonaviy texnologiyalar imkoniyatlaridan oqilona foydalanish orqali milliy va diniy qadriyatlarni mustahkamlashdan iboratdir. Chunki raqamli makon faqat ma'naviy tahdid manbai emas, balki milliy madaniyat, tarixiy meros va ma'rifiy qadriyatlarni targ'ib qilish uchun keng imkoniyatlar yaratadigan muhim ijtimoiy maydon ham hisoblanadi.

O'zbekistonda ham so'nggi yillarda raqamli texnologiyalar hayotning barcha jabhalariga chuqur kirib bormoqda. Internet va mobil aloqa vositalarining ommalashuvi natijasida axborot almashinuvi tezlashdi, ta'lim, iqtisodiyot va madaniyat sohalarida yangi imkoniyatlar vujudga keldi. Yoshlar internet orqali turli madaniyatlar, qarashlar va turmush tarzlari bilan tanishmoqda. Bu holat tabiiy ravishda ularning qadriyatlar tizimiga ham ta'sir ko'rsatmoqda. M.A.Yo'ldosheva ta'kidlaganidek, globallashuv va texnologik taraqqiyot milliy qadriyatlarning saqlanishi hamda yoshlar tarbiyasiga sezilarli ta'sir ko'rsatmoqda [3]. Shu ma'noda, bugungi asosiy vazifa zamonaviy taraqqiyotdan ortda qolmagan holda milliy o'zlikni asrab-avaylashdan iboratdir.

Qadriyat tushunchasi inson va jamiyat uchun muhim bo'lgan ma'naviy, axloqiy va madaniy mezonlarni anglatadi. Inson aynan qadriyatlar orqali yaxshilik va yomonlikni farqlaydi, o'zining hayotiy pozitsiyasi hamda ijtimoiy mas'uliyatini shakllantiradi. N.Raximova fikricha, diniy qadriyatlar bilan dunyoviy tamoyillar

o'rtasidagi muvozanat jamiyat barqarorligini ta'minlovchi muhim omillardan biridir [4]. Milliy qadriyatlar ma'lum bir xalqning tili, tarixi, urf-odatlar va an'analari bilan chambarchas bog'liq bo'lsa, diniy qadriyatlar insonning e'tiqodi, halolligi, bag'rikengligi va axloqiy qarashlarida namoyon bo'ladi.

Bugungi raqamli jamiyat sharoitida qadriyatlarning transformatsiyasi tabiiy jarayon sifatida namoyon bo'lmoqda. Transformatsiya qadriyatlarning butunlay yo'qolishi emas, balki ularning yangi ijtimoiy va texnologik sharoitlarga moslashuvi sifatida tushunilishi lozim. Masalan, ilgari oila, mahalla yoki ta'lim muassasalari orqali shakllangan ko'plab qarashlar bugungi kunda ijtimoiy tarmoqlar va virtual kommunikatsiya vositalari orqali ham shakllanmoqda. Natijada? yoshlarning dunyoqarashi ko'p manbali axborot ta'siri ostida rivojlanmoqda.

R.B.Hojiyev qayd etganidek, inson sha'ni, qadr-qimmati va erkinligi jamiyatdagi eng muhim qadriyatlardan biri hisoblanadi [5]. Shu sababli milliy va diniy qadriyatlarni zamonaviy taraqqiyot bilan uyg'unlashtirish bugungi davrning dolzarb vazifalaridan biridir. Ayrim hollarda xorijiy madaniyatlarning kirib kelishi yoshlarning milliy an'analarga qiziqishini kamaytirishi mumkin. Ayniqsa, ijtimoiy tarmoqlarda ommaviy madaniyatning faol targ'ib qilinishi ba'zi yoshlarning dunyoqarashiga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda. Biroq bu jarayonni faqat xavf sifatida baholash yetarli emas, chunki aynan shu platformalar orqali milliy qadriyatlarni targ'ib qilish imkoniyati ham kengaymoqda.

M.Bekmurodov va N.Yusupovalar ma'naviy qadriyatlarning uzoq yashovchanligini alohida ta'kidlaydi [6]. Haqiqatan ham, texnologiyalar va ijtimoiy sharoitlar o'zgarishi bilan ma'naviy ehtiyojlar shakli yangilanishi mumkin, biroq xalqning tarixiy xotirasi va madaniy ildizlari saqlanib qoladi. Menimcha, aynan shu jihat milliy qadriyatlarning bardavomligini ta'minlaydi. Chunki tarixiy xotira va ma'naviy meros xalqni birlashtiruvchi eng muhim omillardan biridir.

O.Musurmonova ma'naviyatni avlodlarni bir-biri bilan bog'lab turuvchi muhim omil sifatida baholaydi [7]. Mazkur fikr bugungi raqamli jamiyat sharoitida yanada dolzarbroq ahamiyat kasb etmoqda. Chunki yosh avlodni milliy va diniy

qadriyatlar ruhida tarbiyalash faqat an'anaviy vositalar orqali emas, balki zamonaviy raqamli platformalar yordamida ham amalga oshirilishi zarur. Elektron kutubxonalar, onlayn ta'lim resurslari va ma'naviy-ma'rifiy kontentlar yoshlarning milliy meros bilan yaqindan tanishishiga xizmat qilishi mumkin. Shu nuqtai nazardan qaraganda, globallasuv va raqamli jamiyat sharoitida milliy hamda diniy qadriyatlarni saqlash passiv himoya emas, balki faol va zamonaviy yondashuvni talab etadi. Milliy madaniyat, til, urf-odat va ma'naviy merosni raqamli makonda faol targ'ib qilish, yoshlarni tanqidiy fikrlash va axborotni saralash ko'nikmalariga o'rgatish bugungi kunning ustuvor vazifalaridan biridir.

Xulosa qilib aytganda, globallasuv va raqamli texnologiyalar taraqqiyoti milliy hamda diniy qadriyatlarga murakkab va ko'p qirrali ta'sir ko'rsatmoqda. Internet va ijtimoiy tarmoqlar insonlarning dunyoqarashi, turmush tarzi va ma'naviy qarashlarini shakllantiruvchi muhim omillardan biriga aylandi. Ayniqsa, yoshlar hayotining virtual makon bilan chambarchas bog'lanib borayotgani milliy o'zlik va an'anaviy qadriyatlar masalasini yanada dolzarb holga keltirmoqda.

Tahlillar shuni ko'rsatadiki, globallasuv jarayoni nafaqat muayyan xavflarni, balki yangi imkoniyatlarni ham yuzaga chiqarmoqda. Bir tomondan, ommaviy madaniyat va nazoratsiz axborot oqimi ayrim yoshlarning qadriyatlarga bo'lgan munosabatini zaiflashtirishi mumkin bo'lsa, boshqa tomondan esa, raqamli texnologiyalar milliy madaniyat, tarixiy meros va diniy-ma'rifiy qadriyatlarni keng targ'ib qilish uchun qulay maydon yaratmoqda.

Umuman olganda, milliy va diniy qadriyatlarni zamonaviy taraqqiyot bilan uyg'unlashtirish, ularni yosh avlod ongiga zamonaviy usullar orqali singdirish hamda raqamli makonda milliy o'zlikni mustahkamlash bugungi jamiyat oldidagi ustuvor vazifalardan biri hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Мадаева Ш., Юсупова Д. Ўзбек халқи диний ва миллий қадриятларининг тарихий-фалсафий таҳлили. Монография. – Тошкент: “Innovatsiya ziyo”, 2022. – Б. 67-68.

2. Ergashev A. Globallashuv va milliy-ma'naviy xavfsizlik. Toshkent: Ziyonet kutubxonasi, 2018. -B.12,18.
3. Yo'ldosheva M.A. Milliy qadriyatlar va uning jamiyat taraqqiyotidagi o'rni // Scientific Approach to the Modern Education System. - 2025. - Vol. 3. - No 33. B. 19–21.
4. Raximova N. O'zbekistonda diniylik va dunyoviylik munosabatlari. - 2025. -Vol. 83. - No 7. - B. 114-120.
5. Hojiyev R.B. Jamiyat hayotida diniy va dunyoviy qadriyatlarning o'rni. - Toshkent: "Mahalla va oila" ilmiy-tadqiqot instituti, 2024. - moiti.uz/oz/press-center/news/739. -B. 22-27.
6. Bekmurodov M., Yusupova N. Madaniyat sotsiologiyasi: o'uv qo'llanma. -Toshkent: Yangi nashr, 2010. – B.16,40.
7. Musurmonova O. Ma'naviy tarbiya asoslari. - Toshkent: O'zbekiston, 2001. -B. 8-12